



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**



## YOSHLAR SLENGINING AYRIM O'ZIGA XOS HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

### CERTAIN REGIONAL FEATURES OF YOUTH SLANG

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/EADW7800

*Pulatova Umriniso Umar qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti,  
pulatovaumriniso@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlar slengining hududiy xususiyatlari sotsiopragsmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar yoshlari orasida slengdan foydalanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu holat urbanizatsiya, ta'lim darajasi va ijtimoiy texnologiyalarga kirish imkoniyati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida hududiy tafovutlarning kamayib borishi, "internet dialekti" shakllanayotgani kuzatiladi. Qishloq yoshlari esa slengni ko'proq shaharliklarga taqlid qilish, zamonaviylikka intilish jarayonida o'zlashtiradi. Natijalar yoshlar slengini ijtimoiy-madaniy integratsiyaning muhim vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar slengi, hududiy farqlar, shahar va qishloq, internet dialekti, urbanizatsiya, globallashtiruvchi, ijtimoiy integratsiya.

**Annotation:** This article analyzes the regional features of youth slang from a sociopragmatic perspective. Survey results show that the use of slang is more common among urban youth, which is explained by urbanization, education level, and access to social technologies. At the same time, the influence of the internet and social networks reduces regional differences, leading to the emergence of an "internet dialect." Rural youth adopt slang mainly by imitating urban speech and striving for modernity. The findings demonstrate that youth slang serves as an important means of socio-cultural integration.

**Keywords:** Youth slang, regional differences, urban and rural, internet dialect, urbanization, globalization, social integration.

XXI asrda globallashtiruvchi jarayonlari, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi til tizimida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida norasmiy leksik birliklarning (slenglarning) faol qo'llanishi zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan. Sleng faqatgina lug'at boyligini kengaytiruvchi vosita sifatida emas, balki yoshlarning ijtimoiy-madaniy muhitga munosabati, ma'lum bir guruhga mansubligi, yangicha fikrlash va hududiy xoslikni ifodalash vositasi sifatida ham muhimdir. Bu holat tilshunoslikda yangi tadqiqot yo'nalishlarining shakllanishiga turtki bo'lmoqda, jumladan, slengning sotsiolingvistik hamda sotsiopragsmatik jihatdan o'rganilishi,



uning hududiy tafovutlarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Yoshlar nutqida slenglardan foydalanish bir qator omillarga bog‘liq: geografik hudud, madaniy muhit, axborot manbalariga kirish imkoniyati, mahalliy lahja ta’siri, shuningdek, boshqa tillar bilan lisoniy aloqalar (o‘zbek, rus, ingliz, tojik tillarining o‘zaro ta’siri). Shu bois turli viloyat yoki shahar yoshlari nutqida o‘ziga xos sleng birliklari yuzaga keladi. Masalan, Toshkent sharoitida ingliz va rus tillaridan kirib kelgan texno-slenglar ko‘p qo‘llansa, Farg‘ona vodiysida lahjaviy unsurlar va norasmiy o‘zbekcha shakllar ustunlik qiladi. Buxoro va Samarqand yoshlari nutqida esa qadimdan mavjud bo‘lgan hududiy farqlar bugungi kunda ham sleng qatlamida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sleng ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llanishi va mahalliy kommunikativ kontekstga bevosita bog‘liqligi sababli hududiy o‘zgarishlarga juda sezgir qatlam hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida yoshlar slengining shakllanishi va rivojlanishini izohlashga oid turli nazariy yondashuvlar mavjud. Xususan, amerikalik olim Uilyam Labov til tafovutlarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda hududiy omillari bilan bog‘lab tushuntiradi [Labov, 1972: 52]. Uning fikricha, tilning variativligi faqat lingvistik hodisa emas, balki jamiyatdagi tabaqalanish va identitetning bevosita ifodasidir. Bu nazariya bugungi o‘zbek yoshlari nutqida ham tasdig‘ini topadi. Masalan, shahar yoshlari nutqida global tillar ta’siri kuchaysa, chekka hudud yoshlari nutqida mahalliy sheva va aralash shakllar faol qo‘llanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilgan yoshlar yozishmalarida ham bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Toshkent yoshlari nutqida quyidagi jumlagacha duch kelish mumkin: “Bugun deadline yaqin, story tashlashga ulgurmadim, karochi like bosib qo‘yinglar.” Ushbu gap tarkibida inglizcha “deadline”, “story”, “like” hamda ruscha “karochi” kabi aralash sleng birliklari qo‘llangan.

Andijon yoshlari nutqidan olingan quyidagi jumla bunga yaqqol misol bo‘la oladi: “Obbo, valichkani uyda qoldiribman, endi telim o‘chib qolsa vaynlani ko‘rolmayman-ku.” Bu yerda “valichka” so‘zi Farg‘ona vodiysiga xos hududiy leksik birlik bo‘lib, “telefon zaryadkasi” ma’nosida qo‘llanadi. “Teli” – telefonning qisqartirilgan shakli, “vayn” esa internet muhitidan kirib kelgan global slengdir. Demak, birgina jumlada ham mahalliy sheva, ham global leksik elementlarning uyg‘unligi kuzatilmog‘da.

Shu jihatdan rus tilshunosi E.A. Zemskayaning qarashlari Labov nazariyasini yanada boyitadi. Olimaning fikricha, yoshlar slengi mahalliylik va epizodiklik bilan ajralib turadi, ya’ni ko‘plab birliklar muayyan shahar yoki hududga xos bo‘lib, qisqa vaqt ichida yuzaga kelib, tezda yo‘qolib ketishi mumkin [Земская, 1993: 47]. Masalan, Farg‘ona yoshlari tilida uchraydigan “tizzabek” yoki Samarqandda ishlatiladigan “mazgi”, “nag‘zmi” kabi birliklar shu turdagi epizodik slenglarga kiradi. Bugungi global kommunikatsiya sharoitida bunday epizodiklik yanada kuchaymog‘da, chunki internet orqali tez kirib kelayotgan yangi so‘zlar mavjud mahalliy birliklarni siqib chiqaradi.



Slengning hududlar bo‘yicha tarqalishini tushuntirishda ingliz olimi Piter Trudgillning nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. U dialekt va leksik birliklarning yoyilishida geografik masofa hamda aloqa intensivligini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi [Trudgill, 1983: 47]. O‘zbekiston misolida bu quyidagicha ko‘rinadi: Toshkentda paydo bo‘lgan yangi sleng qisqa muddatda Samarqand yoki Andijon kabi yirik shaharlarga kirib boradi, biroq Qoraqalpog‘iston yoki Surxondaryo kabi chekka hududlarda ular mahalliy talaffuz va semantikaga moslashtirilgan shaklda ishlatiladi. Masalan, rus tilidan kirib kelgan “krutoy” so‘zi Toshkent yoshlari orasida “zo‘r, ajoyib” ma‘nosida keng qo‘llansa, Surxondaryoda u “kurtoy” shaklida fonetik moslashuv bilan uchraydi.

Slengning ijtimoiy tabaqalanishdagi ahamiyatini amerikalik tilshunos Penelope Eckert o‘z tadqiqotlarida yoritgan. U Kaliforniya maktablarida “jocklar” (sportga qiziqqan, ijtimoiy faol o‘quvchilar) va “burnouts” (jamiyatdan chetlanishga moyil bo‘lganlar) o‘z mavqeini ko‘rsatishda slengdan foydalanishini ta’kidlaydi [Eckert, 2000: 54]. O‘zbek yoshlari orasida ham shunga o‘xshash jarayon kuzatiladi: “brend”, “trend”, “like” kabi so‘zlarni qo‘llaydigan shahar yoshlari o‘zini zamonaviy va “elit” qatlamga mansub ekanligini namoyish etadi. Shunday qilib, sleng faqat hududiy farqlanish emas, balki ijtimoiy tabaqalanish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Xuddi shuningdek, fransuz olimi Jean-Pierre Goudaillier Parij atrofidagi yoshlar nutqini o‘rganganida, unda arabcha va afrikacha elementlar ustunlik qilayotganini qayd etgan [Goudaillier, 2001: 36]. Bu, bir tomondan, migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yoshlarning o‘z etnik va hududiy identitetini til orqali ifodalashining ko‘rinishidir. O‘zbekiston sharoitida esa bu jarayon ko‘proq rus va ingliz tillaridan kirib kelgan birliklar orqali amalga oshmoqda: “ok”, “super”, “like” kabi so‘zlar yoshlar slengida keng tarqalib, ularning global madaniyatga yaqinlashuvini ifodalaydi.

Umuman olganda, rus tadqiqotchisi E.V.Kuznetsova slengga bergan ta’rif turli nazariy qarashlarni umumlashtiradi: sleng — bu ijtimoiy jihatdan belgilangan, guruhlariga xos va ekspressiv imkoniyatlari keng bo‘lgan til qatlamidir [Кузнецова, 2004: 73]. O‘zbek yoshlarining nutqida ham sleng oddiy muloqot vositasi bo‘lib qolmay, balki “guruhga mansublikni” bildiruvchi ramziy belgi sifatida ishlatiladi. Demak, turli olimlarning yondashuvlari uyg‘unlashgan holda, sleng hududiy, ijtimoiy va madaniy identitetning murakkab, ammo dolzarb ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday qarashlar asosida tilning ijtimoiy funksiyalari, mintaqaviy identitet hamda madaniy xilma-xillik haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Slengning hududiy xususiyatlarini tilshunoslikda regiolekt tushunchasi bilan izohlash mumkin. Regiolekt odatda fonetik, leksik yoki morfosintaktik darajalarda namoyon bo‘ladi. Yoshlar nutqida esa bu xususiyatlar, avvalo, sleng birliklari orqali yaqqol ko‘rinadi. Shu sababdan har bir viloyat, shahar yoki tuman yoshlari o‘zlariga xos yangi sleng so‘zlarini yaratadi yoki mavjudlarini yangi semantik ma’no va funksional tusda qo‘llaydi. Bu jarayon, bir tomondan, tilning doimiy



rivojlanishini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy guruhlar hamda hududlar o'rtasidagi nutqiy tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston ko'p lahjali va madaniy jihatdan rang-barang hudud bo'lgani sababli bunday farqlanishlar ayniqsa yaqqol seziladi. Masalan, Toshkent yoshlari orasida zamonaviy global slenglar ("trend", "flex", "like", "red flag" va b.) keng tarqalgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Andijon yoki Surxondaryo yoshlari nutqida asosan mahalliy lahjaviy asosdagi sleng birliklari ("cho'qmor", "qichuv", "aqltoy", "g'isht" va boshqalar) ustunlik qiladi. Bu esa muloqot jarayonida nafaqat kommunikativ maqsadni, balki hududiy til madaniyatini ifodalovchi belgi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois slengni umumiy til qatlamidan tashqari, mintaqaviy sotsiogrammatik fenomen sifatida tahlil qilish zarur.

O'zbek tilshunosligida yoshlar slengining hududiy jihatlari hali to'liq o'rganilmagan. Hozirgi tadqiqotlar ko'proq umumiy leksik o'zgarishlar yoki alohida ijtimoiy guruhlar nutqiga e'tibor qaratgan. Aslida esa yoshlar nutqida hududiy omil juda muhim rol o'ynaydi: sleng birliklarining shakllanishi, tarqalishi va ma'nodagi o'zgarishlar bevosita mintaqaviy xususiyatlar bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, yoshlar slengining geolinguistik o'ziga xosliklarini o'rganish nafaqat leksik tafovutlarni ochib berish, balki ularning sotsiolingvistik mazmunini, kommunikativ vazifasini va madaniy ko'rsatkichlarini aniqlashda ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda aynan shu masalaga e'tibor qaratilib, empirik izlanishlar o'tkazildi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn so'rovnomalar, yozma blankalar asosidagi savollar hamda intervyular yordamida yoshlar slengining hududiy xususiyatlari aniqlanishiga qaratilgan maxsus metodlardan foydalanildi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar va talabalar nutqini kuzatish orqali ham sleng birliklarining hududiy farqlari tahlil qilindi. Onlayn so'rovnomada jami 121 nafar respondent qatnashdi: ulardan 52 nafari (43%) shaharlik, 69 nafari (57%) qishloqlik yoshlar edi. Ushbu natijalar qishloq hududidan ishtirokchilar ko'proqligini ko'rsatdi. Biroq, "Qaysi hudud yoshlari slengdan faolroq foydalanadi?" degan savolga berilgan javoblar yanada qiziqarli xulosalar olish imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval. Yoshlarning slengdan foydalanish taqsimoti.

Javob variant	Soni	Ulushi (%)
Shaharliklar ko'proq ishlatadi	82	70%
Farq qilmaydi	27	23%
Bilmayman	13	11%
Qishloq yoshlari ko'proq ishlatadi	4	3%



So‘rovnomadan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, slengdan foydalanish darajasi, avvalo, shahar yoshlari orasida yuqoriroq qayd etilgan. Bunga urbanizatsiya jarayonlari, ta’lim sifati, hamda ijtimoiy-axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kabi omillar bevosita ta’sir qilmoqda. Shu bois, hududiy tahlilda “shahar va qishloq” omili yoshlar tilidagi sleng qo‘llanilishining asosiy sotsiopragsmatik mezonlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Ayniqsa, respondentlarning katta qismi slengni ko‘proq shahar muhitiga xos hodisa deb bilishini kuzatish mumkin. Bu xulosa zamonaviy urbanistik tadqiqotlarda ham tasdiqlanadi: shaharda yashovchi yoshlar xorijiy til elementlarini (masalan, inglizchadan kirib kelgan “trend”, “like”, “ok”, shuningdek, rus tilidan o‘zlashgan “karochi”, “zato” kabi so‘zlarni) tezroq o‘zlashtirib, ularni shaxsiy uslub va identitet ifodasi sifatida qo‘llashadi.

Shuningdek, 23% respondentning “farq qilmaydi” degan javobi internet va ijtimoiy tarmoqlar geografik tafovutlarni qisqartirayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon tilshunoslikda “internet dialekti” shakllanishi bilan izohlanadi. “Bilmayman” degan 11% qatnashchining javobi esa ularning til o‘zgarishlariga befarqligidan yoki til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni anglash qobiliyati yetarlicha rivojlanmaganidan dalolat beradi. Ehtimol, ular turli hudud yoshlari nutqini kuzatmagan yoki ijtimoiy tarmoqlarda kam faol bo‘lishi ham mumkin.

Qiziqarli jihati shundaki, “qishloq yoshlari ko‘proq sleng ishlatadi” degan javob atigi 3%ni tashkil etgan bo‘lsa-da, muhim kuzatuv sifatida qabul qilinishi mumkin. Buning sababi shundaki, qishloq yoshlari zamonaviylik va modern hayot tarziga yaqinlashish jarayonida shaharliklar uslubini o‘zlashtirishga intiladi. Bu holat “urbanizatsiyaga til orqali moslashuv” yoki “ijtimoiy integratsiya” sifatida izohlanadi. So‘nggi yillarda chekka hududlarda ham mobil internet, smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlar ommalashgani tufayli sleng kabi yangi til hodisalari qishloq yoshlari nutqiga ham tez kirib bormoqda. Demak, qishloq yoshlari uchun sleng zamonaviylik va zamonga moslashuv belgisi sifatida xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida respondentlarning yashash hududlari bo‘yicha taqsimoti ham o‘rganildi. Jami 121 nafar respondentning qaysi hududdan ekanligi aniqlanib, ularning mintaqaviy xususiyatlari keyingi tahlillarda muhim manba bo‘lib xizmat qildi (2-jadval).

2-jadval. Ishtirokchilarning yashash joyiga ko‘ra ulushi.

Hudud	Respondentlar soni	Ulush (%)
Toshkent shahri	30	25.9
Samarqand viloyati	28	24.1
Farg‘ona viloyati	18	15.5
Buxoro viloyati	12	10.3
Qashqadaryo viloyati	10	8.6
Andijon viloyati	8	6.9



Nukus / Qoraqalpog'iston	6	5.2
Navoiy / boshqa	4	3.5

So'rovnoma natijalariga ko'ra, eng ko'p ishtirokchilar Toshkent shahri va Samarqand viloyatidan qayd etildi. Bu holat markaziy hududlarda yoshlarning faolroq ekanidan dalolat beradi. Shuningdek, Farg'ona viloyatidan ham sezilarli miqdorda respondentlar qatnashgan bo'lib, qolgan hududlar ulushi nisbatan past darajada namoyon bo'ldi: Buxoro – 10,3%, Qashqadaryo – 8,6%, Andijon – 6,9%, Nukus/Qoraqalpog'iston – 5,2% va Navoiy hamda boshqa hududlar – 3,5%. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, markaziy hudud yoshlari tadqiqotda ko'proq ishtirok etgan, chekka hududlar yoshlari esa ancha kamroq qatnashgan. “So'rovnomada hududingizga xos slenglar bormi?” degan savolga javoblar quyidagi ko'rinishda taqsimlandi (3-jadval).

3-jadval. Hududga ko'ra taqsimot ko'rsatkichi.

Javob variant	Respondentlar soni	Ulush (%)
Ha, mavjud	67	57.8
Yo'q, farq qilmaydi	35	30.2
Bilmayman / e'tibor bermaganman	14	12.0

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent va Samarqand viloyatlaridan ishtirok etgan respondentlar “Ha, mavjud” degan javobni ko'proq tanlagan. Toshkentlik yoshlardan ko'plab qatnashchilar “karochi”, “gap yo'q”, “shunaqa”, “layk” kabi so'zlarni aynan poytaxt nutqida keng ishlatilishini ta'kidlashgan. Samarqandlik respondentlar esa “g'isht”, “trendda yurish”, “duxing yo'q” kabi birliklarni hududiy sleng sifatida ko'rsatishgan.

Farg'ona vodiysi viloyatlaridan (Farg'ona, Andijon, Namangan) ishtirok etganlar orasida “farq qilmaydi” degan javob ko'proq uchradi. Bu esa mazkur hududlarda sleng asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali umumlashgan shaklda tarqalayotganidan dalolat beradi. Ayrim hollarda ular “valichka”, “krutoy”, “poytaxtcha” kabi so'zlarni o'z hududlariga xos deb ko'rsatishgan.

Qashqadaryo, Buxoro va Qoraqalpog'iston (Nukus)dan qatnashgan respondentlar orasida esa “bilmayman” degan javoblar nisbatan ko'proq qayd etildi. Bu hududlarda an'anaviylik kuchliroq bo'lgani uchun, odatda, adabiy til me'yorlaridan chekinish hollari kamroq uchraydi. Shu bilan birga, ayrim respondentlar “sleng degan narsa hudud bilan bog'liq emas, internet tufayli hamma bir xil gapiradi” degan fikrni bildirgan.

Umuman olganda, respondentlarning 57,8 foizi hududiy slenglarning mavjudligini tan olgani, til birliklarida ma'lum mintaqaviy xususiyatlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Bu natija faqat onlayn so'rovnomada emas, balki



Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan an’anaviy blankali so‘rovnomalarda ham tasdiqlangan.

Mazkur anketada “Yashash joyingizni belgilang” savoliga 200 nafar talaba javob bergan bo‘lib, ulardan 133 nafari (66,5%) qishloq hududidan, 67 nafari (33,5%) esa shahardan ekanini bildirgan. Ishtirokchilarning asosiy qismini Samarqand yoshlari tashkil qilgan bo‘lsa-da, Navoiy, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo, Andijon, Xorazm, Surxondaryo va Qoraqalpog‘istondan ham respondentlar qatnashgani qayd etildi.

So‘rovnomadagi “Sizningcha, shahar va qishloq yoshlari o‘rtasida sleng ishlatishda qanday farq bor?” degan savolga esa turlicha javoblar berildi. 89 nafar respondent (44,5%) shaharliklar ko‘proq ishlatadi, 23 nafari (11,5%) qishloq yoshlari ko‘proq ishlatadi, 76 nafari (38%) farq yo‘q, 12 nafari (6%) esa bilmayman deb javob bergan. Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilar son jihatdan qishloq yoshlari ustun bo‘lsa-da, slengdan ko‘proq shaharlik yoshlar foydalanishi qayd etilgan. Bu, avvalo, shahar muhitida muloqot imkoniyatlarining kengligi, turli ijtimoiy guruhlar bilan tez-tez aloqa qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet resurslaridan keng foydalanish imkoniyati bilan bog‘liq. Shu sababli shaharlik yoshlar nutqi ko‘proq yangiliklarga moslashgan, dinamik va “zamonaviyroq” sifatida talqin etilmoqda.

E‘tiborga molik jihati shundaki, respondentlarning 38 foizi “farq yo‘q” deb javob bergan. Bu esa, sleng birliklari bugungi davrda hududiy chegaralardan chiqib, qishloq va shahar yoshlari nutqida deyarli bir xil darajada qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar, global madaniyat oqimi va mobil texnologiyalar ta‘sirida til birliklari tezkorlik bilan tarqalib, hududlararo tafovutlarni kamaytirmoqda.

Shu bilan birga, sleng yoshlarning zamonaviylikka intilishi, o‘z tengdoshlari orasida mavqeini ko‘rsatishi va o‘ziga xos ijtimoiy identitet yaratishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. U tilning yashovchanligini, moslashuvchanligini va dinamik xususiyatini yaqqol ifodalaydi. Umuman olganda, yoshlar slengi hozirgi kunda nafaqat kommunikativ qulaylikni, balki madaniy yangilanish jarayonlarini ham aks ettirib, asta-sekin umumxalq hodisasiga aylanib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Labov, W. Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
2. Земская, Е.А. Молодёжный сленг как объект лингвистического изучения. Москва, 1993.
3. Trudgill, P. Dialect in Contact. Oxford: Blackwell, 1983.
4. Eckert, P. Linguistic Variation as Social Practice: The Linguistic Construction of Identity in Belten High. Oxford: Blackwell, 2000.
5. Goudaillier, J.-P. Comment tu tchatches! Dictionnaire du français contemporain des cités. Paris: Maisonneuve & Larose, 2001.
6. Кузнецова, Е.В. Сленг: Опыт системного описания. Москва, 2004.



## MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
<b>I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI</b>		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
<b>II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.</b>		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
<b>III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI</b>		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
<b>IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI</b>		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
<b>V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI</b>		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab' ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo'noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774